

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

IJTIMOIY RIVOJLANISHNING GENEZISI SIFATIDA O'ZEBKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING O'RNI

Nurullayeva L. X.

TDAU "Huquq va turizm" fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Axunov Sh. A.

TDAU "Gumanitar va huquq" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaning yaratilishi, amaldagi va yangi tahrirdagi o'rtaqidagi farqlari va o'zgarishlari to 'g'risida fikr hamda takliflar to 'g'risida boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaning yaratilishi, qaror, moddalar, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya

Аннотация: В этой статье обсуждается создание конституции, различия и изменения между действующей и новой конституцией Республики Узбекистан, а также мнения и предложения.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, создание конституции, постановление, статьи, новая редакция конституции.

Abstract: This article discusses the creation of the constitution, the differences and changes between the current and the new constitution of the Republic of Uzbekistan, opinions and suggestions.

Key word: Constitution of the Republic of Uzbekistan, creation of the constitution, decision, articles, new version of the constitution.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrdagi inauguratsiya marosimidagi nutqida "Agar dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tub burilish davrida ko'pgina davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilganini ko'ramiz. Shu sababli, avvalo, senator va deputatlarimiz, keng jamoatchiligidan, xalqimiz bilan yana bir bor maslahat qilib, jahon konstitutsiyaviy tajribasini o'rganib, puxta o'yagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan Asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ham ko'rib chiqishimiz

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

kerak”¹ deb ta’kidlab o’tgandi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda Konstitutsiyani zamonaviy hayotga moslashtirishni davrning o’zi taqozo etar edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya “Yangi O’zbekiston strategiyasi”ni amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Referendum ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat’iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo‘ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi hamda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o‘rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi va O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi.

Ta’kidlash lozim, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O’zbekiston qonunchiligiga yangi o‘zgarishlardan biri bo‘lib, ushbu tushunchaniga Konstitutsiyada ko‘rsatib o‘tilishi ijtimoiy normalarning mustahkamlanganligini belgisi sifatida namoyon bo‘ldi².

Shu bilan birgalikda, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qonunchilik faoliyati, ularni ishlab chiqish va tasdiqlashda qo‘srimcha vakolatlarga ega bo‘ldi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senat tomonidan qonun loyihasini ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida 60 kun ichida qaror qabul qilmagan taqdirda, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasini O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga yubora oladi. Qonunchilik hujjatlarining O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanishi va e’lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi.

¹Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/4743>

²O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6445145>

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi bilan oldingi Konstitutsiyada bo‘lgan asosiy o‘zgarish va farqlar haqida so‘z yuritilsa, jumladan, 1-moddasida O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb o‘zgartirildi.

Shu bilan birgalikda, avvalgi Konstitutsianing 15-moddasida “Konstitutsiya va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi” jumlesi bilan birinchi band yakunlanar edi, yangi tahrirda esa quyidagicha o‘zgartirildi: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”.

Agar qonunchilikda noaniqlik mavjud bo‘lsa, bu holatda inson manfaatlarini ta’minlash maqsadida, inson foydasiga hal etilishi ko‘rsatib o‘tildi, ya’ni, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”.

Jumladan, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, misol uchun pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak bo‘ladi.

Bunga qadar 1992-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘لامи kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, Bosh qomusdagい moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 65 foizga yangilangan³.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, amaldagi Konstitutsiyasining yangilanishi rivojlanib borayotgan zamonga moslashish, o‘zgayotgan vaziyatlarga mos kelib qarorlarni ham yangilash deb aytsak bo‘ladi, ushbu o‘zgarilishi demokratik jamiyat va xalq farovonligini oshirish uchun ko‘zlangan maqsadlar o‘zini amalini va tadbiq qilinishi uchun barchaning burchi hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyada xalq manfaatlari yana bir bor birinchi o‘ringa qo‘yildi, kiritilgan o‘zgarishlar esa demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida qilingan qadam bo‘ladi.

³ <https://constitution.uz>

Foydalanimanadabiyotlar

1. Mamatkulov, D. M., & Abdupattaev, H. A. (2021, October). MODERN REQUIREMENTS FOR TEACHING ACTIVITIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF NATIONAL IDEOLOGY. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 1).
2. Mamatkulov, D. M. (2019). THE UNITY OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EDUCATION IN YOUTH. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 211-215.
3. Маматқұлов, Д. М. (2018). Малака ошириш жараёнида тингловчиларда шаклланган күнікма ва малакаларни баҳолаш механизмларини такомиллаштириш масаласи. *Современное образование (Узбекистан)*, (7), 3-10.
4. Mamatkulov, D. M. (2017). Issues of Improving Teaching Quality in the Institutions Enhancing the Skills of Educational Workers through Modern Requirements. *Eastern European Scientific Journal*, (5).
5. Маматқұлов, Д. М. (2016). Семья в качестве идеологического учреждения. *Ученый XXI века*, 30.
6. Маматқұлов, Д. М. (2016). Проблема повышения эффективности пропаганды национальной идеологии в учреждениях повышения квалификации и переподготовки работников народного образования. *ГОСУДАРСТВО И ШКОЛА*, 142.
7. Маматқұлов, Д. М. (2016). «Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари» фанини мутахассис ўқитувчилар билан таъминлаш муаммолари. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 65-72.
8. Маматқұлов, Д. М. (2015). Мағкура тушунчаси, унда ғоя ва категорияларнинг тутган ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 3-9.
9. Маматқұлов, Д. (2010). Сиёсий онг ва тарихий мағкура. *Жамият ва бошқарув*.
- 10.Шукуров, Р. Э. (2020). NEGATIVE AND POSITIVE ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS. *Наука и мир*, 2(8), 72-74.
- 11.Шукуров, Р. Э. (2020). ОНГСИЗЛИК ПСИХОЛОГИЯСИДА ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (ОЛИЙ ЎҚУВ

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИ МИСОЛИДА). Современное
образование (Узбекистан), (8 (93)), 38-44.

12. Eshonkulovich, S. R. (2019). TYPES OF RELIGIOUSNESS AS AN OBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(8)*.
13. ШУКУРОВ, Р. Э. ШАХСНИНГ ИНДИВИДУАЛ ДИНДОРЛИК ТИПЛАРИ ВА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕҲАНИЗМЛАРИНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (3), 116-124.